

Хужжат IDси (Dldox.uz): 11f0bba767607bc6a2601e0008000075
Хужжат IDси (Rouming.uz): 690d98fb815d389a5d42b60d
электрон хужжат идентификатори



Shartnoma Шартнома №737/2025-Tosh

Toshkent
(шартнома тузиш жойи)

31.12.2025
(шартнома тузиш сана)
31.12.2025
(шартнома шу вақтгача амал қилади)

"ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI D" DM (bundan buyun - "Bajaryuvchi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **AZIMOV INOMJON MAMASODIKOVICH**, bir tomondan, va ""QASHQADARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI" DM" (bundan buyun - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **MUXAMMADIYEV FAXRIDDIN JALOLOVICH**, ikkinchi tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraflar" deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish to'g'risidagi shartnoma

Ushbu shartnomaga binoan, Mijoz tulaidi va qabul qiladi va Ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarini (xizmatlarini) etkazib beradi:

№	Maqsulot nomi (xizmatlar)	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi buyicha identifikatsiya kodi va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	Ulchov birligi	Miqdori	Narx	Etkazib bериш қиймати	ҚҚС		Etkazib bаҳоси ҚҚС билан
								ставка	сумма	
1	Buyurtmachi xodimlarini o'zbek adabiy tili me'yori, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish (masofaviy) Eshboyev Asilbek Baxtiyor o'g'li	108990010010000000 - Boshqa ta'lim sohasidagi xizmatlar		odam	1,00000	1 297 000,00	1 297 000,00		ҚҚС сиз	1 297 000,00
Жами							1 297 000,00			1 297 000,00

Шартноманинг умумий миқдори Бир миллион икки юз тўқсон етти минг сум 00 тийин (сумма сўзлар билан), (1 297 000,00)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb yuritiluvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor I. Azimov bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi Qashqadaryo viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda "Tomonlar" deb yuritiluvchilar o'rtasida mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Ijrochi Buyurtmachining buyurtmasiga binoan quyidagi ishni (xizmatni) bajarish, Buyurtmachi esa bajarilgan ish (xizmat) uchun haq to'lash majburiyatini oladi:

№ Ish (xizmat) nomi O'lovch birligi Sonl Narxi 1 xodim uchun (so'm) Miqdori Aksiz solig'i QQS Jami hisoblangan miqdor (so'm)

1. Buyurtmachi xodimlarini o'zbek adabiy tili me'yori, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish (masofaviy) nafar 1 1 297 000 Aksiz solig'isiz QQSiz 1 297 000 Jami 1 297 000

1.2. Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari va malaka oshirish dasturlari asosida o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq (jami 144 soatlik) olib boriladi.

II. Shartnomaning umumiy bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Shartnomaning umumiy bahosi QQSiz 1 297 000 (bir million ikki yuz to'qson yetti ming) so'm 00 tiyinni tashkil qiladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining 30 foizini shartnoma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 10 kun muddatda Ijrochining hisob raqamiga oldindan o'tkazib beradi yoki Buyurtmachi shartnomani G'aznachilik xizmati ro'yxatidan o'tkazmasdan, shartnoma qiymatining 100 foiz to'lovini 10 bank ish kuni mobaynida oldindan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

2.3. Agar buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining 30 foizini oldindan o'tkazib bergan bo'lsa, qolgan 70 foizini Ijrochi tomonidan hisob-faktura va bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnoma berilgan kundan boshlab 10 kun muddatda Ijrochining hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarganda, Buyurtmachi xodimini o'qitish va malaka oshirish uchun to'lanadigan haq miqdori tomonlar o'rtasida tuziladigan ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv asosida o'zgartiriladi.

- 2.5. Tomonlar o'rtasida tasdiqlangan o'qitish va malaka oshirish jadvaliga muvofiq, Buyurtmachi xodimi kurs boshlangan kundan boshlab 10 kun mobaynida o'qishga kelmagan taqdirda, Ijrochi hisobiga o'tkazilgan mablag' Buyurtmachiga qaytarilmaydi.
- 2.6. Buyurtmachi shartnomaning ikkinchi nusxasini malaka oshirish kursi boshlangan vaqtda Ijrochiga taqdim etilishini ta'minlaydi.
- III. Ijrochining huquq va majburiyatlari
- 3.1. Ijrochi shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan Buyurtmachidan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish huquqiga ega.
- 3.2. Ijrochi mazkur shartnoma doirasida quyidagilarga majbur:
- sifat jihatidan yuqori darajada mashg'ulotlar uchun zarur o'quv, uslubiy va moddiy-texnik bazani tashkil etish;
 - o'qitish va malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ta'lim jarayoni uchun zamonaviy innovatsion pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- Buyurtmachi xodimini Ijrochining ichki tartib-qoidalar bilan tanishtirish;
- kurs yakunida 55 (ellik besh) va undan yuqori ball to'plagan tinglovchilarga davlat namunasidagi sertifikat berish;
- 54 (ellik to'rt) va undan past ball to'plagan tinglovchilarga kursda o'qiganligi haqida ma'lumotnoma taqdim qilish.

IV. Buyurtmachining huquq va majburiyatlari

- 4.1. Buyurtmachi mazkur shartnoma doirasida quyidagilarga majbur:
- tomonlar o'rtasida tasdiqlangan o'qitish va malaka oshirish jadvalida nazarda tutilgan sondagi tinglovchilarni o'z muddatida o'qishga jalb etilishini ta'minlash;
 - o'z xodimlarining kurslarga uzrli sabablarsiz muntazam qatnashishlarini ta'minlash;
 - mazkur shartnomada ko'rsatilgan to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish.
- 4.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma doirasida quyidagi huquqlarga ega:
- shartnomalarni bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;
 - davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;
 - xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash.

V. Tomonlarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlari

- 5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalariga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
- 5.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
- 5.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsiya xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsiya holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.
- VI. Tomonlarning javobgarligi
- 6.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.
- 6.2. Shartnoma bo'yicha ishlarni (xizmatlarni) o'z vaqtida bajarmaganlik uchun Ijrochi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan to'lov miqdorining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiy summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 100 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 6.3. Bajarilgan ishlar (xizmatlar) uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganlik uchun Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir kun uchun amalga oshirilmagan to'lov miqdorining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiy summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 100 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni ishini (xizmatni) bajarmaslik yoki to'lovni amalga oshirmaslik majburiyatidan ozod etmaydi.
- 6.4. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek, hisob-kitobning boshqa shakllarda (ishlar, xizmatlar) haqini to'lashdan bosh tortganlik, bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foiz miqdorida jarima to'laydi.

6.5 Jarima, penya to'laganligidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

VII. Nizolarni hal qilish tartibi

- 7.1. Tomonlar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha nizolar va kelishmovchiliklar ular o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi.
- 7.2. Agar nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

VIII. Fors-major holatlari

- 8.1. Tomonlar xohish-irodasidan tashqari yuzaga keladigan oldindan bilib bo'lmaydigan va oldini olish imkoniyati bo'lmagan fors-major (yong'in, suv toshqini, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar) holatlarda tomonlar majburiyat bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
- 8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida tomonlar ushbu holatlar yuzaga kelganda so'ng darhol bir-birlarini xabardor qilishlari shart. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining ishonchilligi vakolatli tashkilotning tegishli hujjati bilan tasdiqlanishi kerak. Bunday holda ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati fors-major holati davomida qoldiriladi.

IX. Boshqa shartlar

- 9.1. Buyurtmachi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va malaka oshirish kurslariga mutaxassislarni jalb qilish yuzasidan Ijrochiga takliflar kiritishi mumkin.
- 9.2. Tinglovchi uzrsiz sabablarga ko'ra (mehnat shartnomasi bekor qilingan, boshqa ishga o'tgan) Ijrochida an'anaviy va masofaviy onlayn shaklda tashkil etilgan mashg'ulotlarda qatnashmagan yoki ma'mur tomonidan berilgan elektron login va parol orqali masofaviy ta'lim platformasida o'quv kursini boshlagan, biroq belgilangan o'qish muddati davomida o'quv kursi modullarini (topshiriq, ma'ruza, videoma'ruza, taqdimot slaydlari, glossariy) yakunlamagan, shuningdek, belgilangan tartibda Ijrochi tinglovchilari safidan chiqarilgan hollarda, Ijrochi hisob raqamiga o'tkazilgan to'lov summasi Buyurtmachiga qaytarilmaydi.
- 9.3. Ijrochi masofaviy ta'lim platformasiga joylashtirilgan elektron o'quv-kontentlarini uzrli sabablarga ko'ra o'zlashtirmagan tinglovchilar yakuniy sinov imtihoniga qo'yilmaydi va bunday holda tinglovchi keyingi guruhlar bilan birga o'quv kursi bo'yicha elektron o'quv kontentlarini to'liq o'zlashtirganidan so'ng yakuniy sinov imtihonini topshirishga ruxsat beriladi.
- 9.4. Tinglovchi yakuniy sinov imtihonlaridan o'ta olmagan taqdirda Ijrochi hisob raqamiga o'tkazilgan to'lov summasi Buyurtmachi tashkilot va Buyurtmachilarga qaytarilmaydi. Bunday holda tegishli Buyurtmachi tashkilot va Buyurtmachilar qaytadan Ijrochi bilan elektron dastur orqali shartnoma rasmiylashtirishi lozim. Shartnoma bo'yicha to'lov summasi belgilangan tartibda amalga oshirilganidan so'ng tinglovchi o'qish shaklini tanlab navbatdagi guruh bilan birgalikda (masofaviy yoki an'anaviy shaklda) malaka oshirish kursida o'qiydi.
- 9.5. Uzrli sabab bilan malaka oshirish kursini yakuniga yetkaza olmagan tinglovchi taraffar kelishuviga binoan navbatdagi guruh bilan birgalikda malaka oshirish kursini yakunlashi mumkin.
- 9.6. Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish, o'quv jarayoni, qoldaga ko'ra, 30 nafardan ortiq bo'lmagan tinglovchilardan iborat akademik guruhlarda tashkil qilinadi.
- 9.7. Tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo'lgan taqdirda malaka oshirish o'quv kurslari masofadan o'qitish usullari qo'llanilgan holda onlayn (masofaviy) yoki oflayn (an'anaviy) shaklda tashkil etiladi.
- 9.8. Ijrochi tinglovchilarni turar-joy bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi.
- 9.9. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha shartlar amaldagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.
- 9.10. Tomonlarning yuridik manzili, bank rekvizitlari, shuningdek, yuridik maqomi o'zgargan taqdirda tegishli Tomon darhol xabardor qilish majburiyatini oladi.

X. Yakuniy qoidalar

- 10.1. Ijrochining ichki tartib-qoidalariga Buyurtmachi xodimi tomonidan amal qilinmagan taqdirda Ijrochi tomonidan Buyurtmachi yozma ravishda ogohlantiriladi hamda Buyurtmachi xodimi kursdan chetlashtiriladi.
- 10.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 10.3. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati to'yxatidan o'tkazilishi lozim, ammo shartnoma

toimonlar imzolagan kundan kuchga kiradi hamda 2025-yilning 31-dekabrigacha amal qiladi.
10.4. Ushbu shartnoma har ikki tomon uchun bittadan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har ikki nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

2. Томонларни юридик манзиллари ва реквизитлари

Ижрочи

Номи: "ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
D" DM

Манзил: ТОШКЕНТ ШАҲАР ЯККАСАРОЙ ТУМАНИ
O'QITUVCHILAR KO'CHASI, 103-UY

Телефон: 998955007717

Факс:

СТИР: 307387233

IFUT (OKED):

X/P: 460010860262877096200350001

Банк: ТОШКЕНТ Ш., МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ТОШКЕНТ
ШАХАР ХИСОБ-КИТОБ КАССА МАРКАЗИ

МФО: 00014

Буюртмачи

Номи: "QASHQADARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI" DM

Манзил: Қашқадарё вилояти, ҚАРШИ ШАҲРИ,
Xonobod shosse 46-uy

Телефон:

Факс:

СТИР: 202448961

IFUT (OKED): 84130

X/P: 23430000900510233001

Банк: ҚАРШИ Ш., "ИПОТЕКА-БАНК" АТИБ КАШКАДАРЁ
ВИЛОЯТ ФИЛИАЛИ

МФО: 00190

786cefc8

2025.11.07 12:00:16

ЮБОРИЛГАН

307387233

AZIMOV INOMJON

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

HUZURIDAGI D DM

7860396c

2025.11.07 16:51:45

ТАСДИҚЛАНГАН

202448961

MUXAMMADIYEV FAXRIDDIN

QASHQADARYO VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI

QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI DM